

IJTIMOYIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

Boymurzayev Isomiddin Azizbek o'g'li
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy tomonlari, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri hamda tarmoqlardagi kamchiliklar va ushbu kamchiliklarni qanday usullar bilan bartaraf etish mumkinligiga bag'ishlangan. Bundan tashqari yoshlarni internetdagi turli xil xurujlarga nisbatan immunitetni qanday shakllantirish mumkinligi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq, internet, yoshlar, platform, ma'naviyat, Covid 19, WhatsApp, Facebook, Telegram

Insonning dunyoqarashiga ta'sir ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchisi jismoniy ta'sir, ikkinchisi ma'naviy ta'sir. Jismoniy ta'sirga nisbatan ma'naviy ta'sir kuchliroqdir. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashiga ma'naviy tomondan ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan qanday maqsadlarda foydalanayotganligiga e'tibor berishligimiz lozim.

Ijtimoiy tarmoq – bu internetda ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish uchun yaratiladigan online platforma. Internet tushunchasi 1950-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida paydo bo'lgan. Internet - dunyo bo'ylab joylashgan va yagona tarmoqqa birlashtirilgan minglab kompyuter tarmoqlarining majmuyidir. Internet axborot almashish vositasi hisoblanadi. Bu almashish yildan yilga takomillashib bormoqda. XXI asrning boshlarida bu rivojlanish o'zining yuqori nuqtasiga yetdi. Internet biz uchun nimaga kerak? Internetning yaratilishini insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyotlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Internetning afzallik tomonlari birinchidan uzoq masofadan turib aloqa o'rnatishga imkon beradi; ikkinchidan ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etadi;uchinchidan insonlarning tezkor dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishini ta'minlaydi. Internet rivojlanishining insonlar uchun qulayliklari nimalardan iborat?. Turli xil internet do'konlari paydo bo'ldi. Ya'ni insonlarning ortiqcha vaqt sariflashlariga xojat qolmadi. Internetning rivojlanishi natijasida oldinda yaqinlashib kelayotgan ob-havo ma'lumotlariga ega bo'lmoqdamiz. Bu esa noqulay ob-havo natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari turli xil online darsalar tashkil qilinmoqda. Natijada biror bir mashg'ulotni o'rganmoqchi bo'lgan inson alohida vaqt va xarajat sariflab o'rganishiga xojat qolmaydi. Bu Covid-19 pandemiyasi davrida o'z qulayligini

ko'rsatdi. Hozirgi kunda butun dunyo aholisining 63 foizi internetdan foydalanadi. Statista.com sayti eng ommabop tarmoqlar ro'yxatini e'lon qildi. WhatsApp - 2mlrd, Facebook – 988 mln , telegram 550 mln foydalanuvchiga ega. Shunday ekan bunday tarmoqlarning faoliyati ustidan nazorat o'rnatilishi kerak. Bir amaldor aytganidek “siz menga ijtimoiy tarmoqlarni bering, men sizga istalgan xalqning mafkurasini o'zgartirib beraman”. Darhaqiqat, uzoq davrlar mobaynida shakllangan milliy, diniy qadriyatlarimizning oyog'osti qilinishiga asosiy sababchi ham internetdir. Internetning o'rni ayniqsa hozirgi globallashayotgan davrda juda muhim. Hozirgi kunda internetsiz deyarli hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi . Internet axborot almashish vositasi bo'lganligi sababli undan har qanday ma'lumotni olish mumkin. Bu internetning eng katta kamchiligi hisoblanadi. Internet shunday narsaki undagi ma'lumotlardan inson mafaat ham ko'rishi mumkin, aksincha zarar ham ko'rishi mumkin. Misol qilib biz internet orqali din ulamolarining, domlarning turli nahyi munkarlarini, ma'ruzalarini eshitishligimiz mumkin. Va o'z navbatida turli xil diniy oqimlarga qo'shib qolishligimiz ham mumkin. Hukumat tomonidan insonlarning axborot sohasidagi bilimlarini oshirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Bosh qomusimizning 33-moddasida davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi deb belgilab qo'yilishi bu sohaga qaratilayotgan e'tiborning yanada kuchayishiga sabab bo'ladi albatta. Ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda Respublikamiz bo'yicha mobil aloqa qamrovi 99 foizga, keng polosali mobil internet qamrovi 98.5 foizga, xalqaro ahamiyatga ega avtoyo'llarning mobil internet bilan qamrov darajasi 75 foizga yetkazilgan. Aholining internetga ulanish qamrovini oshirish, optik tolali aloqa liniyalari qamrovini kengaytirish maqsadida joriy yil boshidan hozirgi kunga qadar qo'shimcha 50 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalarini qurish orqali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 220 ming kilometrga yetkazildi. Quvonarli jihati shundan iboratki, bu ishlar Respublikamizning chekka-chekka hududlarida ham amalga oshirilmoqda. O'z navbatida aholi punktlarining tezkor internet bilan ta'minlanishi yoshlarning buzg'unchilik, qo'poruvchilik g'oyalariga qo'shilishiga sabab bo'lib qolmasligi lozim. Internetdan noto'g'ri foydalanish natijasida yoshlarimiz turli xil diniy oqimlar, qo'poruvchi g'oyalar, video o'yinlar ta'siriga tushib o'z hayotlarini barbod qilmoqda. Bunday ishlarga kattalarining ham aralashib qolayotganligi achinlari holdir. Bunday holatlarning oldini olish bo'yicha davlatimiz tomonidan qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “turli ma'naviy buzg'unchilik, vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish, aholi, ayniqsa , unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizda ularga nisbatan ma'naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g'oyaklarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratishim

lozim". Yoshlarni internetdagi turli xil xurujlardan saqlash maqsadida Raqamli texnologiyalar markazlari tashkil qilinmoqda, IT parklari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan TATU va Inha universitetlariga qamrov darajasi oshirildi. Hayot tajribasi shuni ko'rsatdiki, internetdan to'g'ri yo'lda foydalanishni yo'lga qo'ygan davlatlar dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirmoqda. Misol uchun Janubiy Koreyada internetdan samarali foydalanish, axborot texnologiyalari uchun keng imkoniyatlar yaratilishi natijasida bir avlod ko'z o'ngida mamlakat qoloqlik botqog'idan rivojlanishning yuqori nuqtasiga erishdi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak internetdan to'g'ri yo'lda foydalansak u bizga beminnat xizmat qiladi. Lekin undan samarasiz foydalansak bizning zararimizga ishlashligi turgan gap.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh. Mening Prezidentim. –T.: 2017. -B.251.
2. Nuriddin Akramkulovich Saidkulov (2020). THE IMPACT OF THE REFORMS ON THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH. Academic research in educational sciences, (1), 152-156. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00022
3. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.
4. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
5. Akramkulovich, S. N. (2020). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.
6. Akramkulovich, S. N. (2020). METADODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE-CREATIVE APPROACH. Восточно-европейский научный журнал, (5-5 (57)), 39-42.
7. Akramkulovich, S. N. (2023). HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF EASTERN POLITICAL THOUGHT. World Bulletin of Social Sciences, 19, 173-176.
8. Акрамкулович, С. Н. . (2023). ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙИЙ-СИЁСИЙ БАҲҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Miasto Przyszłości, 36, 455–460.
9. Саидкулов Нуриддин Акрамкулович.,. (2023). ЖАМИЯТ БАҲҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference, 48–53.

10. Saidkulov, N. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(11), 169-174.
11. Akramkulovich Nuriddin Saidkulov. (2023). PROBLEMS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN ENSURING THE STABILITY OF SOCIETY. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(11), 233–241. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-25>
12. [https:// daryo.](https://daryo.uz)
13. [https:// uza.uz](https://uza.uz)